

# PEDAGOG

## RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.
The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.

Volume 1, Issue 4



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

# «BEST PUBLICATION»

*Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©*

# “PEDAGOG”
# RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

# MATERIALLARI TO‘PLAMI

**15-OKTYABR, 2022-YIL**

**2-SON**

O‘ZBEKISTON
2022

Ushbu to‘plamda “Pedagog” respublika ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o‘rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

**Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.**

**TAHRIRIYAT**

**Bosh muharrir:**
Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich
*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*
**Mas’ul muharrir:**
Yusufjonov Quyoshbek Komiljon o‘g‘li
*Farg‘ona davlat universiteti*
**Texnik xodim:**
Sultonov Sardorbek No‘monjon o‘g‘li
*Farg‘ona davlat universiteti*

**TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI**

**Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna**
*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
**Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi**
*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
**Sabirova Gulnoza Sadikovna**
*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
**Saidov Ixtiyor Muzropovich**
*Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i*
**Mamatova Nodira Muxtarovna**
*Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)*
**Rasulova Vasila Batirovna**
*Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent*
**Nikadambayeva Hilola Batirovna**
*Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,*
*Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*
**Pirimov Akram Pirimovich**
*Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent*
**Shodiyev Furqat Davranovich**
*Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari*
*nomzodi, Dotsent*
**Qurbonova Muqaddas Omonovna**
*Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*
**Baltayeva Ikbal Tadjibayevna**
*O’zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi*
*dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.*
**Sayfullayeva Ra’noxon Raupovna**
*O’zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.*
**Popova Tatyana Igorevna**
*SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya.Doctor filologicheskix nauk, professor.*
**Berdaliev Abduvali**

*Tojikiston. Xo`jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.*

**Manzuraxon Ernazarova**

*Navoi davlat pedagogika instituti.Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Uluqov Nosirlon Muxammadalievich**

*Namangan davlat universiteti.Filologiya fanlari doktori.*

**Jumanazarova Guljahon**

*Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.*

**A.A.Qosimov**

*Farg`ona davlat universiteti.Filologiya fanlari doktori, professor.*

**Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich**

*Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.*

**Fayzimatov Shuxratjon No'monovich**

*Farg'ona politexnika instituti.Texnika fanlari doktori.*

**Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich**

*Andijon davlat universiteti.Filologiya fanlari doktori.*

**Hulkar Hamroyeva**

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.*

**O'rinboyev No'monjon O'rmonovich**

*falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`*

**Qurbonova Muqaddas Omonovna**

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg'ona davlat universiteti.*

**Qunduzxon Atabayevna**

*Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston. Jahon tillari universiteti.*

**Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich**

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Erofeeva Inna Nikolaevna**

*Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.*

**Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna**

*pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg'ona davlat universiteti.*

**G.O.Abdugafurovich**

*Filologiya fanlari nomzodi. Farg'ona davlat universiteti.*

**Xudayarov Oybek Odilovich**

*Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti*

**Muxitdinova Muniraxon**

*Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)*

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**MUNDARIJA:**


| | | |
|---|---|---|
| 1. | **Mannonov Asliddin Akbar o`g`li**<br>**Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi**<br>*KIBER JINOYATNING TULARI VA UNGA QARSHI KURASHDA MAMLAKATIMIZDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR* | 20 |
| 2. | **Kadirova Feruza Xikmatullaevna**<br>*COMPUTER ASSISTED LANGUAGE LEARNING* | 23 |
| 3. | **Курбанов Миршод Ташпулатович**<br>*ПРОИЗВОДСТВА ЭКОЛОГИЧЕСКИ ЧИСТОЙ ПРОДУКЦИИ* | 28 |
| 4. | **Ж. Мадрахимов**<br>**Н.Комилова.**<br>*ТАБИАТ БИЛАН ЖАМИЯТ ЎРТАСИДАГИ ЎЗАРО АЛОҚАДОРЛИКНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДА ЭТНОЭКОЛОГИК ҚАРАШЛАРНИНГ ЎРНИ.* | 31 |
| 5. | **Мустафаева Замира Саидкуловна**<br>*РАЗВИТИЕ ФОРМ ОБЩЕНИЯ У ДОШКОЛЬНИКОВ.* | 36 |
| 6. | **Д.Ахмедова**<br>**Омонов Бунёд**<br>**М.Х.Рахмонкулов**<br>*ФИЗИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В МАССИВНЫХ И ПЛЕНОЧНЫХ ХАЛЬКОГЕНИДАХ СВИНЦА ПРИ ВЗАИМОДЕЙСТВИИ С КИСЛОРОДОМ.* | 41 |
| 7. | **Янгибоев Шахзод Икромжон ўғли**<br>*ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИ ТОМОНИДАН БОШҚАРУВНИНГ БЕЛГИЛАНГАН ТАРТИБИГА ТАЖОВУЗ ҚИЛУВЧИ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ* | 44 |
| 8. | **Bazarova Shirin Desyarovna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA O'YINLARDAN FOYDALANISH* | 52 |
| 9. | **Mohiraxon Nazirjonovna Bozorova**<br>**Bozorova Mohira Nazirjonovna**<br>**Yuldasheva F.**<br>*TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH* | 56 |
| 10. | **Бобожонов С.С.**<br>*СИМУЛЯЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ ВРАЧЕЙ-ОБЩЕЙ ПРАКТИКИ С УЧЕТОМ ТРЕБОВАНИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО СТАНДАРТА* | 59 |
| 11. | **Majidov Anvarxon Mahmudxon o'g'li**<br>*INTEGRATED CHIPS* | 62 |
| 12. | **Yuldasheva. S. F**<br>**Yusupova Farangiz Adhamjon qizi**<br>*PROBLEMS IN LEARNING ENGLISH IN PRESCHOOL CHILDREN* | 65 |
| 13. | **Mubinova Aziza**<br>*ERTANGI KUN - PORLOQ VA YORUG' KELAJAK BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA, ULARNING TINIMSIZ IZLANISHLARIDADIR* | 68 |
| 14. | **Ortiqova Nargiza Baxtiyorovna** | 73 |

| | | |
|---|---|---|
| | *FANLARARO INTEGRATSIYANING TA'LIMDAGI AHAMIYATI* | |
| **15.** | **Sug'diyona Abdusattorova**<br>**Sardor Dursunov**<br>*TRIXOFAGIYA TURLARIDA KUZATILADIGAN SHAXS XUSUSIYATALARI VA MOYILLIKLARINI ANIQLASH* | **77** |
| **16.** | **С. Рахимов**<br>*БИОЛОГИК ҚУРОЛЛАР КЕЛТИРИБ ЧИҚАРАДИГАН БИОЛОГИК ХАВФЛАР* | **80** |
| **17.** | **М. Тинибеков**<br>**С. Рахимов**<br>*ИС ГАЗИНИНГ ИНСОН ОРГАНИЗМИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ* | **85** |
| **18.** | **Mo'minov Asqar Abduraxmonovich**<br>**Jumaboyev Sarvar Musurmonovich**<br>*PEDAGOGIK OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARIDA TA'LIMGA QO'YILADIGAN TALABLAR* | **88** |
| **19.** | **Tulboyeva Dinora Zokir qizi**<br>**Xaydarov Baxrom Xolmuradovich**<br>*2022-2026- YILLARDA MO'LJALLANGAN YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASINING MILLIY IQTISODIYOTNI ISLOH QILISHIDAGI O'RNI* | **92** |
| **20.** | **G`afforova Visola Niyatulla qizi**<br>**Xaydarov Baxrom Xolmuradovich**<br>*"YASHIL IQTISODIYOT" NI MODERNIZATSIYA QILISH VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZARO MUTANOSIBLIGI MASALALARI* | **95** |
| **21.** | **Axunova Shoira Hamroqulovna**<br>*JADIDCHILARNING MA'RIFATPARVARLIKKA QO'SHGAN HISSASI* | **100** |
| **22.** | **Базарова Ш.А.**<br>*СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ* | **105** |
| **23.** | **Tohirbekov Rustambek Ravshanbek o'g'li**<br>**Rayimqulov Oxunjon Qurbonaliyevich**<br>**Maxmudova Naima Xalilovna**<br>*TISHLI G'ILDIRAKLARNING GEOMETRIK PARAMETRLARINI ANIQLASH* | **108** |
| **24.** | **Gulasal Niyazmetova**<br>*XURSHID DAVRON TARIXIY ASARLARIDA VATAN VA MILLIY RUH* | **112** |
| **25.** | **Nargiza Ergasheva Shavkatbek qizi**<br>*INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MEVA VA GUL KOMPONENTLI FRAZEMALAR TAHLILI* | **116** |
| **26.** | **Nazarova Nilufar Jo'rayevna**<br>**Muxammadjonov Sunnatillo Saminjon o'g'li**<br>*PEDAGOGIK FAOLIYATDA AXBOROT-KOMMUNIKATIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH* | **119** |
| **27.** | **Nazarova Nilufar Jo'rayevna**<br>**Olimboyeva Gulnoza Alisher qizi**<br>*KADRLAR KASBIY SIFATINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIKANING O'RNI* | **123** |

| | | |
|---|---|---|
| 28. | **Yuldasheva S.F.**<br>**Ibodova E.A.**<br>*XITOY TILI HAMDA INGLIZ TILINI O'RGANISH JARAYONIDAGI DUCH KELINAYOTGAN MUOMMOLAR VA ULARNING YECHIMI* | 126 |
| 29. | **Parmanov Roziqjon Salimovich**<br>*CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL QILISH VA O`QITISH METODLARI* | 130 |
| 30. | **Sherova Orzigul Alisher qizi**<br>**Odilova Sharofatbonu**<br>**Abdulhamidov Shexroz**<br>*CHALLENGES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN PRIMARY SCHOOL.* | 135 |
| 31. | **Кулдашева Санобар**<br>*ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИ УЧУН МУЛЬТИМЕДИАЛИ ЎЙИН ЛОЙИҲАЛАРИНИ ЯРАТИШ* | 138 |
| 32. | **Tilabova Dilnoza Hamroqulovna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA YANGICHA METODLAR* | 143 |
| 33. | **Yuldasheva S.F.**<br>**Muhitdinova R.U.**<br>*RUS TILINI O'RGANISHDA TALABALARDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR* | 147 |
| 34. | **Masharipova Nargiza**<br>*GILAM TO`QISH SAN`ATI TARIXINI O`RGATISH* | 150 |
| 35. | **Xo'jabekova D.E.**<br>*DUKKAKLI EKINLARNI TUPROQNING AGROKIMYOVIY XOSSALARIGA TASIRI* | 153 |
| 36. | **Кучкарова Н.П.**<br>*СУҒОРИЛАДИГАН ТУПРОҚЛАРНИ БАҲОЛАШДА САМАРАЛИ УСУЛЛАР* | 157 |
| 37. | **Isheryakova Joanna Rinatovna**<br>*THE MOST EFFECTIVE WAYS OF TRANSLATING GEOGRAPHICAL NAMES* | 161 |
| 38. | **Сайидов Феруз Ҳамроқулович.**<br>*ЕР МОНИТОРИНГИНИ ЎТКАЗИШ АСОСЛАРИ ВА ТАМОЙИЛЛАРИНИ ЁРИТИШ УСЛУБЛАРИ.* | 165 |
| 39. | **Yuldasheva F.F.**<br>**Gulzira Obloqulova Jasur qizi**<br>*MAG'ZI TO'Q TIL-OZIG'I KO'P TIL* | 171 |
| 40. | **Yusupov Yusupboy Mansurbek o'g'li**<br>**Shahanov Bobur Choriyevich**<br>**Saparbayev Atabek Sharipbayevich**<br>*QAYROQ VA LAZGI* | 174 |
| 41. | **Axmedova Firuza Asrorovna**<br>*TARJIMA FAOLIYATIDA IDIOLEKTNI AKS ETTIRISH XUSUSIYATLARI.* | 180 |
| 42. | **Xurramova Dildora Rahkmonkulovna**<br>*MUALLIFLIK MASALASI VA USLUB NAZARIYASI SIFATIDA* | 184 |

| | | |
|---|---|---|
| 43. | **Одилова Эхсона Собировна**<br>*СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВОЗРОЖДЕНИЕ ИТАЛИИ И ФРАНЦИИ.* | 188 |
| 44. | **Юлдашева Фароғат Туракуловна**<br>*ИЗЧИЛЛИК АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ* | 199 |
| 45. | **Mamajonova Ravshanoy Erkinboyevna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O'TISHDA AMALIY ISHLARNI TASHKIL ETISH* | 201 |
| 46. | **Xujamova Guli Xolmurodovna**<br>*«BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIDA O`QISH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI»* | 210 |
| 47. | **Ismoiljon Hayitaliyev**<br>**Muhammademinov Alijon Azizjon o'gli**<br>*NOMA'LUMNING KASR QISMI QATNASHGAN TENGSIZLIKLAR VA ULARNI YECHILISH USULLARI* | 214 |
| 48. | **Пардаева Наргиза Абдувахабовна**<br>*ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ* | 216 |
| 49. | **Shahnoza Zokirjonovna**<br>*TILSHUNOSLIKDA BADIIY TASVIR VOSITALARNI O'RGANISHI.* | 221 |
| 50. | **Normatjonov Alisher Shavkatjon o'g'li**<br>*DEVIANT XULQLI O'SMIRLAR PSIXOLOGIYASI* | 225 |
| 51. | **Ochilov Sharof Rustam o'g'li.**<br>**Jo'raqulova Sabina Shermat qizi**<br>**Qurbonova Mehribonu Bahadir qizi**<br>**O'ralov Abdumannon Iskandarovich**<br>*MUSKARINING TURLARI VA XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI* | 228 |
| 52. | **Xolmirzayeva Sarvinozbonu Boqijon qizi**<br>*CHET TILLARINI O`QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH* | 230 |
| 53. | **Saidova Zarnigor Urokovna**<br>*KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING JISMONIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI* | 233 |
| 54. | **Asadov Nurislom Xasan o'g'li**<br>**Rajabov Sanjarbek Xamro o'g'li**<br>**Xaydarov Baxrom Xolmuradovich**<br>*MODUL-KREDIT TIZIMI. BU TIZIMNING TARIXI VA KELIB CHIQISH SABABI* | 237 |
| 55. | **Tursunov Firdavs Sherali o'g'li**<br>**Rajabov Sanjarbek Xamro o'g'li**<br>**Xaydarov Baxrom Xolmuradovich**<br>*O'ZBEKISTON VA XALQARO MOLIYA TASHKILOTLAR O'RTASIDAGI MOLIYAVIY MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI* | 242 |
| 56. | **Buriyeva Feruza Murodillayevna**<br>*INSON QALBI SHE'RIYAT BEZAGI* | 248 |
| 57. | **Olimova Nilufar Baxtiyorovna** | 253 |

| | | |
|---|---|---|
| | *MUSIQA MADANIYATI DARSLARIGA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI LOYIHALASHTIRISH* | |
| **58.** | **Tashlanova Dilnoza Murodilovna**<br>*QO'RG'OSHIN XALG'KOGENIDLARNING ELEKTROFIZIK XUSUSIYATLARI* | **258** |
| **59.** | **Tashlanova Dilnoza Murodilovna**<br>*QO'RG'OSHIN XALKOGENIDNING HAJMIY KRISTALLARINI FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI* | **263** |
| **60.** | **Abduraximov Shoxrux Shuxratjon o'g'li**<br>*O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR SHAROITIDA AXBOROT OLISH HUQUQINI TA'MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR* | **267** |
| **61.** | **Зябирова Лилия Хасановна**<br>*«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ПРЕДМЕТА ОБЩЕЕ ФОРТЕПИАНО»* | **277** |
| **62.** | **Umirzaqova Mahzuna Soatovna**<br>*BUGUNGI KUN YOSHLARINI INGLIZ TILIGA O'RGATISHNING MUHIM METODLARI* | **281** |
| **63.** | **Xo'rozova Zarifa Ulug'bek qizi**<br>**Ismoilova Mashhura Qahramon qizi**<br>**Mamatqulova Iroda Ergashevna**<br>*OSHLOVCHI SUMAX (RHUS CORIARIA L.) O'SIMLIGINI SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI* | **284** |
| **64.** | **Nabiyeva Nodira Saidovna**<br>*XO'JA ABDULLOH ANSORIY BUYUK SO'FIY.* | **288** |
| **65.** | **Хожаниязов Азамат Рузимбаевич**<br>*СИНТЕЗ 5-АНТИПИРИНАМИНО-1,3,4-ТИАДИАЗОЛ-3-ТИОНОВ (5 АНТИПИРИНАМИНО-1,3,4-ТИАДИАЗАЛИН-3-ТИОНОВ) И ЕГО РЕАКЦИЯ С ЭПИХЛОРГИДРИНОМ* | **291** |
| **66.** | **Мамирова Дилафрўз Дўсмуродовна**<br>*БОШЛАНҒИЧ СИНФЛАРДА БОЛА ТАРБИЯСИДА НУТҚ МАДАНИЯТИ* | **297** |
| **67.** | **Абдирайимова Зарифа Рахматиллаевна**<br>*ИНТЕРФАОЛ ТАЪЛИМНИНГ АСОСИЙ ШАКИЛЛАРИ* | **300** |
| **68.** | **S.A.Adasheva**<br>**A.A.To'xtaboyev**<br>*MATERIALINING YOPISHQOQ-ELASTIK XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA O'ZGARUVCHAN QATTIQLIKDAGI TO'G'ON-PLASTINANING KUCHLANISH-DEFORMATSIYA HOLATI* | **303** |
| **69.** | **А.Тухтабаев**<br>**С.А.Адашева**<br>*НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМИРОВАННОЕ СОСТОЯНИЕ ПЛОТИНЫ-ПЛАСТИНЫ С УЧЕТОМ ВЯЗКОУПРУГИХ СВОЙСТВ МАТЕРИАЛА* | **312** |
| **70.** | **Тургунпулатов М.М.**<br>**Рахимов А.М.**<br>*МАҲАЛЛИЙ ШАРОИТДА ЁҒОЧДАН ҚУРИЛАДИГАН УЙЛАРНИНГ УЗОҚҚА ЧИДАМЛИЛИГИНИ ОШИРИШ* | **321** |

| | | |
|---|---|---|
| 71. | **Тургунпулатов М.М.**<br>**Рахимов А.М.**<br>*ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИЕ МЕТОДЫ УСКОРЕНИЯ ТВЕРДЕНИЯ БЕТОНА* | **328** |
| 72. | **А.О.Эгамбердиев**<br>*СИФАТЛИ ОДДИЙ ҒИШТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УЧУН ТАБИИЙ ХОМ АШЁЛАРНИНГ КИМЁВИЙ ТАҲЛИЛИ* | **336** |
| 73. | **А.О.Эгамбердиев**<br>*ОСНОВНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ О СИСТЕМАХ НАРУЖНОГО УТЕПЛЕНИЯ* | **344** |
| 74. | **K.Muminov**<br>**A.Martazayev**<br>**N.Xodjiyev**<br>*TEMIRBETON TOM YOPMASI SOLQLIGINI ANIQLASH USULI* | **352** |
| 75. | **A.Martazayev**<br>*DISPERS ARMATURALASH* | **361** |
| 76. | **Б.Мамадов**<br>**Ш.Хакимов**<br>*ҚУРИЛИШ КОРХОНАСИНИНГ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ* | **369** |
| 77. | **I.I.Xakimov**<br>**B.I.Qurbonov**<br>**B.A.Mamadov**<br>*BINOLAR VA INSHOOTLARNI QUYOSH RADIATSIYASI TA'SIRIDAN HIMOYA QILISH TADBIRLARI* | **378** |
| 78. | **Д.Г.Акрамова**<br>**Б.Г.Жураев**<br>*НАПРЯЖЕННО-ДЕФОРМАЦИОННОЕ ПОВЕДЕНИЕ ПОЛИМЕРОВ* | **386** |
| 79. | **Д.Г.Акрамова**<br>**Б.Г.Жураев**<br>*ОСОБЕННОСТИ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНЫХ ОБЩЕСТВЕННЫХ И АДМИНИСТРАТИВНЫХ ЗДАНИЙ* | **394** |
| 80. | **Б.Мақсуд ўғли**<br>*ПЎЛАТ ТОЛАЛАРИ БИЛАН ДИСПЕРС АРМАТУРАЛАНГАН ТЕМИРБЕТОН* | **403** |
| 81. | **Б.Мақсуд ўғли**<br>*ПОВЫШЕНИЕ НЕСУЩЕЙ СПОСОБНОСТИ СТРОИТЕЛЬНЫХ КОНСТРУКЦИЙ ПУТЕМ АРМИРОВАНИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ СТАЛЬНОЙ ФИБРОЙ* | **412** |
| 82. | **Д.Г.Акрамова**<br>*БИНОЛАРНИ ЛОЙИҲАЛАШДА ИННОВАЦИОН ЁНДОШУВЛАР* | **421** |
| 83. | **Акрамова Дамира**<br>*ЭКОНОМИКО-МАТЕМАТИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ СРОКОВ ПРОВЕДЕНИЯ РЕМОНТА И РЕКОНСТРУКЦИИ МОСТОВ* | **429** |
| 84. | **О.Н.Набижанов**<br>**И.Х.Эгамбердиев**<br>**А.М.Рахимов**<br>*ЯХЛИТ БЕТОН КОНСТРУКЦИЯЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА БЕТОНГА* | **438** |

| | | |
|---|---|---|
| | *БОШЛАНҒИЧ ҚАРОВНИНГ ДАВОМИЙЛИГИ* | |
| **85.** | **О.Н.Набижанов**<br>**Ж.К.Жўраев**<br>**И.Х.Эгамбердиев**<br>*ПОЕЗДЛАР ҲАРАКАТИДАН ҲОСИЛ БЎЛГАН ДИНАМИК КУЧЛАРНИ ЕР ОСТИ ИНШООТЛАРИГА ТАЪСИРИНИ ЎРГАНИШ* | **444** |
| **86.** | **Ковтун Ирина Юрьевна**<br>*КОМПЬЮТЕРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ФИБРОЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ЭЛЕМЕНТОВ, ПОДВЕРЖЕННЫХ СОВМЕСТНОМУ ВОЗДЕЙСТВИЮ КРУЧЕНИЯ С ИЗГИБОМ* | **451** |
| **87.** | **Ковтун Ирина Юрьевна**<br>*ЭНЕРГОСБЕРЕГАЮЩИЕ СТРОИТЕЛЬНЫЕ КОНСТРУКЦИИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ ЗДАНИЙ* | **459** |
| **88.** | **Sh.Omonkeldieva**<br>**K.K.Mo’minov**<br>**A.S.Abdurahmonov**<br>*XORAZM IQLIM SHAROITI VA LANDSHAFTIDA GUJUMNING O'RNI VA AHAMIYATI* | **467** |
| **89.** | **Abdujalilov D**<br>**K.Mo’minov**<br>**A.Abdurahmonov**<br>*CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA IQTISODIY USULLARDAN FOYDALANISH* | **475** |
| **90.** | **S.M.Xusainov**<br>**M.A.Xusainov**<br>*BIM KONSEPSIYASINING ASOSI– YAGONA MODELDIR* | **482** |
| **91.** | **М.А.Хусаинов**<br>**С.М.Хусаинов**<br>*БИНОЛАРНИ ЛОЙИҲАЛАШДА ЗАМОНАВИЙ ЁНДОШУВЛАР* | **493** |
| **92.** | **Турғунпўлатов М.**<br>**Рахимов А.**<br>*ЁҒОЧ КАРКАСЛИ БИНОЛАРНИНГ ЧЕТКИ УСТУН ТУГУНЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА МУСТАҲКАМЛИГИНИ ОШИРИШ.* | **501** |
| **93.** | **Турғунпўлатов М.**<br>**Рахимов А.**<br>*БИНОЛАРНИ ТАШҚИ ПАРДОЗЛАШ ИШЛАРИДА “МЕТАЛ-АПЕХ” ПАНЕЛЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ* | **508** |
| **94.** | **Hamdamova Madina**<br>*BUILDING STRATEGIES FOR EARTHQUAKE PROTECTION* | **515** |
| **95.** | **M.Hamdamova**<br>*BETON MAHSULOTINI ISHLAB CHIQARISHDA SANOAT CHIQINDILARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI* | **523** |
| **96.** | **Х.Рахимов**<br>**А.Боймирзаев**<br>**Н.Р.Ходжиев**<br>*ТЕХНИЧЕСКАЯ ОБСЛЕДОВАНИЯ, НАРОДНОГО НАСЛЕДИЯ В* | **531** |

| | | |
|---|---|---|
| | *ЗДАНИЯ МЕМОРИАЛА «МАВЛАВИЙ НАМАНГАНИЙ» В ГОРОДЕ НАМАНГАН* | |
| 97. | **М.Мусомиддинов**<br>**Н. Ходжиев**<br>*МЕРОПРИЯТИЙ ВОССТАНОВЛЕНИЯ НОВО ПОСТРОЕННЫХ ЗДАНИЕ «HOT STAMPING» НА ТЕРРИТОРИИ СОВМЕСТНОЕ ПРЕДПРИЯТИИ ООО «UZSUNGWOO» В ГОРОДЕ ФЕРГАНЕ* | 539 |
| 98. | **Усманов Темурмалик Яхёхон ўғли**<br>**Чўлпонов Олимжон Ғопуржонович**<br>*НАСОС ҚИСМЛАРИНИ КАВИТАЦИОН-АБРАЗИВ ЕМИРИЛИШИГА ҚАРШИ ЖИХОЗЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШ.* | 548 |
| 99. | **О.Чўлпонов**<br>*ОҚИМНИНГ КОНЦЕНТРАЦИЯСИ ДАРАЖАСИНИНГ КЎП ФАЗАЛИ АЭРАЦИОН ОҚИМДА ТАРҚАЛИШИНИ ҲИСОБЛАШ УСУЛЛАРИ* | 556 |
| 100. | **O. Fozilov**<br>*GRUNTLI TO‘G‘ONLARNING DINAMIK HISOBI MASALASINI YECHISH ALGORITMI VA TENGLAMALARI* | 564 |
| 101. | **O.Fozilov**<br>*GRUNTLARNING ZICHLANISHINI ANIQLASH USULLARI* | 572 |
| 102. | **Ахмедов П.**<br>*МАХАЛЛИЙ ХОМ–АШЁЛАР АСОСИДА ЯККА ТАРТИБДА БИНОЛАР ҚУРИШ* | 579 |
| 103. | **Ахмедов П.**<br>*МАХАЛЛИЙ ХОМ - АШЁЛАРДАН САМАРАЛИ ҚУРИЛИШ УСЛУБЛАРИ* | 585 |
| 104. | **A.R.Mirzamaxmudov**<br>**S.E.No’manova**<br>**R.A.Mavlonov**<br>*AKTIV SEYSMIK HIMOYA VOSITALARI* | 592 |
| 105. | **А.Р.Мирзмахмудов**<br>**С.Э.Нўъманова**<br>**Р.А.Мавлонов**<br>*БИРИНЧИ ҚАВАТИ ЭГИЛУВЧАН КОНСТРУКЦИЯЛИ БИКИР ТЕМИРБЕТОН БИНОЛАР* | 602 |
| 106. | **Р.Назаров**<br>**К.Мўминов**<br>**Н.Ходжиев**<br>*ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ ОРҚАЛИ ТАЛАБАЛАР БИЛИМИНИ ТЕСТ ЁРДАМИДА БАҲОЛАШ ВА ТАҲЛИМ СИФАТИ КЎРСАТКИЧЛАРИНИ ОШИРИШ* | 611 |
| 107. | **Орзиматова Муаззам Фахриддин қизи**<br>**Назаров Рохатжон Уктамович**<br>*КЎП ҚАВАТЛИ ЖАМОАТ ҲАМДА ТУРАР-ЖОЙ БИНОЛАРИНИНГ ЛИФТГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖИ, ЛИФТЛАРНИ МОНТАЖ ЖАРАЁНИДАГИ МУАММОЛАРИ.* | 620 |
| 108. | **Turg’unov Shohruh** | 628 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Usmanov Temurmalik Yaxyoxon o'g'li**<br>*KO'P QAVATLI BINOLARNING HAJMIY-REJAVIY YECHIMIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR* | |
| 109. | **Usmanov Temurmalik Yaxyoxon o'g'li**<br>*KO'P QAVATLI BINO VA INSHOOTLARDA SEYSMIK YUKLARNI ANIQLASH* | 638 |
| 110. | **Хошимжонов Э.Р**<br>**Одилов И.И**<br>**Гуломов М.Н**<br>**Х.Л.Алимов**<br>*МАЪРУЗА МАШҒУЛОТЛАРИНИ ЁРИТИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ* | 651 |
| 111. | **Хошимжонов Э.Р**<br>**Одилов И.И.**<br>**Гуломов М.Н.**<br>**Х.Л.Алимов**<br>*ЭНЕРГИЯ САМАРАДОРЛИККА ЭРИШИШ — ТАРАҚҚИЁТ КАФОЛАТИ* | 659 |
| 112. | **И.Шукруллаев**<br>**М.Пулатова**<br>**Хакимов Ш.А**<br>*ТЕПЛОВАЯ ОБРАБОТКА БЕТОНА В ЖАРКОМ КЛИМАТЕ* | 668 |
| 113. | **И.Шукруллаев**<br>**М.Пулатова**<br>**Хакимов Ш.А.**<br>*ПРОВЕДЕНИЕ ЗАНЯТИЯ ПО МЕТОДУ «КРУГЛОГО СТОЛА»* | 678 |
| 114. | **З.Холбоев**<br>*ТАЛАБАЛАРДА КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ МУАММОЛАРИ* | 687 |
| 115. | **Холбоев Зокиржон Ходиевич**<br>*КАНАДАДА ҚУРИЛИШНИ ТАРТИБГА СОЛИШ МЕЪЁР ВА ҚОИДАЛАРИ* | 697 |
| 116. | **Жураев Ҳайдаржон Одилбоевич**<br>*ШАХС ВА УНДАГИ ПСИХОПАТИЯ ХОЛАТЛАРИ КЕЛИБ ЧИҚИШ САБАБЛАРИ ВА ПРОФИЛАКТИКАСИ* | 707 |
| 117. | **Riskaliyeva Sabina Boxodir qizi**<br>*DEVELOPMENT OF ONLINE SALES AUTOMATION PROCESS* | 714 |
| 118. | **Ахмедова Хафиза Хакимовна**<br>*ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МЕТОДИКИ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ* | 719 |
| 119. | **Urazova Nasiba Urazbayevna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION METODLARNING AHAMIYATI* | 725 |
| 120. | **Xolmatova Moxira Muxorjon qizi.**<br>*BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI* | 729 |
| 121. | **Ortiqova Rayhona Umar qizi** | 734 |

| | | |
|---|---|---|
| | **F. F. Yuldasheva**<br>*MUTAXASSISLIGI CHET TILI BO`LMAGAN OTM TALABALARIGA INGLIZ TILINI O`RGATISHDA YANGI PEDAGOGOIK TEXNOLOGIYALAR* | |
| 122. | **Ochilova Muxlisa Suyun qizi**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*YUQORI MALAKALI KARDLAR TAYYORLASH* | 737 |
| 123. | **Boyqo’ziyeva Shahriniso**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*XORIJIY TILLARNI O’RGANISH TEXNIKASI* | 740 |
| 124. | **Norboyeva Nilufar Zokirovna**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*SAID AHMADNING "UFQ" ROMANINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O’RNI* | 744 |
| 125. | **Yo’ldosheva Farog’at**<br>**Murodova Sabina**<br>*SEMANTIC ANALYSES OF PAREMIOLOGICAL UNITS WITH HEALTH COMPONENTS* | 747 |
| 126. | **Hoshimova Nargiza Abdullayevna**<br>**Xoldorova Hilola Haydarali qizi**<br>*INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI “TURIZM” SOHASIGA OID LUG‘ATLAR YARATISH MASALALARI.* | 751 |
| 127. | **Эрназарова Озода**<br>*ЛЕКСИЧЕСКИЕ РАЗЛИЧИЯ МЕЖДУ ДИАЛЕКТАМИ НЕМЕЦКОГО ЯЗЫКА* | 756 |
| 128. | **Yuldasheva.F.F**<br>**O’ralov.U.B**<br>*O’ZBEK XALQINING CHIN DO’STI, TARJIMON VA SHOIR – ALEKSANDR FAYNBERG* | 759 |
| 129. | **Xoshimova Durdona**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*TYPES OF POLLUTION AND ITS IMPACT ON HUMANITY* | 762 |
| 130. | **Yuldasheva F.F**<br>**Xakimova Zulfiya Oybek qizi**<br>*O’QUV JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O’RNI* | 764 |
| 131. | **Yuldosheva F.F**<br>**Mamanazarova Intizor Sobirjon qizi**<br>*CHET TILI O’QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI* | 767 |
| 132. | **Saidrizayev Said**<br>**F.Yuldasheva**<br>*CHET TILINI O`RGANISHIDA MULTIMEDIA VOSITALARINING O`RNI* | 770 |
| 133. | **Tòlanboyeva Muxlisa Baxtiyorjon qizi**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*CHET TIL O'QITISH METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLAR* | 774 |
| 134. | **Reyimbayeva Shemshat**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MENEJERLARNI TAYYORLASH* | 778 |

| | | |
|---|---|---|
| | *ZARURIYATI* | |
| 135. | **Adashaliyeva Yoqutxon Dilmurod qizi**<br>**Yuldasheva. F.F**<br>*O'ZBEKISTON MAMLAKATI MIQYOSIDA INGLIZ TILIGA BERILGAN E'TIBOR VA IMKONIYATLAR* | **781** |
| 136. | **Машарипов Тохир Эгамбердиевич**<br>**Асракулов Мирносир Мирсултонович**<br>*СУЩНОСТЬ ОПЕРАТИВНОЙ ТЕХНИКИ И ПРАВОВАЯ ОСНОВА ЕЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В БОРЬБЕ С ПРЕСТУПНОСТЬЮ* | **784** |
| 137. | **Убайдуллаев Камолиддин Нуриддинович**<br>**Эргашев Шерали Турсунбоевич**<br>*ТРАНСМИЛЛИЙ УЮШГАН ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ* | **792** |
| 138. | **Allaqulova Sevara**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*HARLEM RENAISSANCE IN AMERICAN LITERATURE AND LONGSTON HUGHES* | **797** |
| 139. | **Ro'ziqulova Sarvinoz**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*ALISHER NAVOIYNING „HAYRAT UL-ABROR"DOSTONIDA KO'NGIL OBRAZI* | **800** |
| 140. | **Jalilova Shaxinabonu Jalol qizi**<br>**F. F. Yuldasheva**<br>*CHET TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI* | **803** |
| 141. | **Gulshoda Eshquvvatova**<br>**F.F.Yuldasheva**<br>*BOLALARNI KITOB O'QISHGA QIZIQTIRISHDA,OTA-ONALARNING VAZIFALARI* | **806** |
| 142. | **Sharipova Malohat**<br>**Ubaydova Zebi**<br>*JONATHAN SWIFT'S WRITING STYLE.* | **809** |
| 143. | **Shirinqulov Dostonjon**<br>*VOYAGA YETMAGAN O'SMIRLAR XULQ-ATVORINI SHAKLLANTIRISHGA QARATILGAN FAOLIYATNING PSIXOLOGIK MOHIYATI* | **812** |
| 144. | **Parmanova Sevara Altinbekovna**<br>*PEDAGOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TARBIYALASHNING PEDAGOGIK TIZIMINI SHAKLLANTIRISH.* | **815** |
| 145. | **Maxmadaliyev Sobitjon**<br>*QADIMGI VA HOZIRGI DUNYO DAVLATLARI IQTISODIYOTIDAGI FARQLAR, BOG'LIQLIKLAR VA O'XSHASHLIKLAR* | **818** |
| 146. | **Behruz Jumog'ulov**<br>**Jumag'ulov Behruz Boysun o'g'li**<br>*ANALITIK KIMYODA XROMATOGARAFIYA USULLARI* | **822** |
| 147. | **Radjabova Gulmira Alievna** | **825** |

| | | |
|---|---|---|
| | **Abdullaeva Umida Nigmatullaevna**<br>*INTELLIGENTLY STRATEGIES OF EDUCATING REMOTE DIALECTS* | |
| 148. | **Qambarova Manora Nurmurod qizi**<br>**Abdullaeva Umida Nigmatullaevna**<br>*THE PRINCIPLES OF DESIGNING CLASSROOM ACTIVITIES.* | 831 |
| 149. | **Raximov Feruz Movlidinovich**<br>**Muxammadov Bobur Quvondiq o'g'li**<br>**Olimov Jasurjon Sadriddin o'g'li**<br>*ENKODER DATCHIGINING ISHLASH SOHASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH.* | 837 |
| 150. | **Madrimov Abrorjon G'ayrat o'g'li**<br>*TA'LIM MUASSASALARDA HARBIY TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH* | 841 |
| 151. | **Eshniyozova N.N.**<br>*PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES OF SULFOCATIONITES FROM WALNUT SHELLS* | 845 |
| 152. | **Yusupova Baxtigul Abduxakimovna**<br>*MATEMATIKA FANIGA YANGICHA YONDASHUV VA MATEMATIK SAVODXONLIK ASOSLARI* | 849 |
| 153. | **Bektamisheva Maqsuda Klichovna**<br>*O'QUVCHILARGA KASHTACHILIK TARIXINI O'RGATISH* | 851 |
| 154. | **Quvandiqov Bahodir Ro'zimurotovich**<br>*MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH* | 853 |
| 155. | **Tolipova Marhabo Farxodovna**<br>*TARIX DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH-O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI MUHIM OMILDIR* | 855 |
| 156. | **Raxmanova Nasiba Abdunazarovna**<br>*TABIAT VA INSON O'RTASIDAGI MUNOSABAT, EKOLOGIK MADANIYAT* | 857 |
| 157. | **Musayeva Laylo Kaxramonovna**<br>*GEOGRAFIYA FANLARINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI.* | 859 |
| 158. | **Abdullayeva Oytuxta Quvondiqovna**<br>*FIZIKA O'QITISHDA IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH* | 862 |
| 159. | **Musayev Timur Qaxramonovich**<br>*INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA KREATIV YONDASHUV* | 865 |
| 160. | **Muhammadiyev Ulug'bek Sadullo o'g'li**<br>*TASVIRIY SAN'AT DARSLARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH* | 868 |
| 161. | **Yuldasheva Yulduz Berdiyorovna**<br>*UMUMTA'LIM MAKTABLARI RUS TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI* | 871 |
| 162. | **Qutliyeva Dilafro'z To'yboyevna**<br>*BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARI JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH.* | 874 |

| | | |
|---|---|---|
| 163. | **Ollaberganova Momojon Otabayevna**<br>*BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING AHAMIYATI, MAQSAD VA VAZIFALARI* | 877 |
| 164. | **Urazova Firuza Urazboyevna**<br>*BIOLOGIYA FANINI O`QITISHDA LABORATORIYA ISHLARINING AHAMIYATI* | 882 |
| 165. | **Ibragimova Dilnoza Samandarovna**<br>*ONA-TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISH METODIKASI* | 886 |
| 166. | **Ollayorova Muborak**<br>*ONA TILI VA ADABIYOTI FANIDAN TA`LIM-TARBIYA BERISHDA ZAMONAVIY O`QITISH METODLARIDAN – INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.* | 890 |
| 167. | **Soliyeva Sarvinoz Sohibjon qizi**<br>**Yuldasheva F.F**<br>*CHET TILI KOMPETENSIYALARINI O'QITISHDA XORIJIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI AMALIYOTGA SAMARALI JORIY ETISHNING AHAMIYATI* | 892 |
| 168. | **Ravshan Sayfullin**<br>**Shokhsanam Tashpulatova**<br>*THE MAIN CHARACTERISTICS OF VIDEO MATERIALS TO DEVELOP STUDENTS' SPOKEN PRODUCTION* | 895 |
| 169. | **Muhammadiyeva Nilufar**<br>**Doniyorova Malohat**<br>**Choriyev Otajon**<br>*SURXON VOHASI 1917-1941 – YILLARDA BXSRNING TASHKIL TOPISHI VA SURXON VOHASIDAGI MILLIY – OZODLIK HARAKATLARI* | 900 |
| 170. | **Ablakimova Hojiniso**<br>**Mansurova Marxabo**<br>**Shavqatulloyev Do`stmuhammad**<br>*SURXON VOHASI 1917-1941 – YILLARDA BXSRNING TASHKIL TOPISHI VA SURXON VOHASIDAGI MILLIY – OZODLIK HARAKATLARI* | 904 |
| 171. | **Ergashev Sherali**<br>**Gulboyev Shohmansur**<br>**Shavqatulloyev Do`stmuhammad**<br>*O'RTA ASRLARDA O'RTA OSIYODA O'LCHOV BIRLIKLARI* | 908 |
| 172. | **Karshiboeva Mukhlisa**<br>*METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES* | 912 |
| 173. | **Ташмухамедова Дилдора Аскарбековна**<br>**Турдиев Шахзод Махмуд ўғли**<br>*ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН* | 915 |
| 174. | **Шавқатуллойев До`стмуҳаммад**<br>**Оятуллоҳ Айниддин**<br>*САРФ ИЛМИ ВА УНИНГ ФОЙДАЛАРИ* | 920 |
| 175. | **Jamolova Mushtariy Komiljonovna** | 922 |

| | | |
|---|---|---|
| | **Kasimova Musharraf Anvarjonovna**<br>*PIRLS XALQARO BAHOLASH DASTURIGA O'QUVCHILARNI TAYYORLASHNING AHAMIYATI* | |
| 176. | **Abdirim Abdirimov.**<br>*«TA'LIM BOSHQARUVIDA MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI»* | 928 |
| 177. | **Davletova Manzura Nozorovna**<br>*PROFESSIONAL TA'LIMDA TA'LIM-TARBIYAVIY ISHLARNI RIVOJLANTIRISHDA O'QITUVCHILARDAGI PEDAGOGIK MAHORATNING O'RNI.* | 934 |
| 178. | **Norova Nafisa Ilxomovna**<br>*MUSIQA MA'DANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARGA MUSIQIY HIS TUYG'ULARNI SINGDIRISH VA RIVOJLANTIRISH.* | 939 |
| 179. | **Matyoqubova Mavluda Shonazarovna**<br>*EKOLOGIK MUAMMOLARNING IQTISODIY JIHATDAN BOG'LIQLIGI* | 942 |
| 180. | **Matyoqubova Mavluda Shonazarovna**<br>*MAKTABGACHA DAVR – SOG'LOM TURMUSH TARZINING ASOSIY DAVRI* | 945 |
| 181. | **Gulbahor Qurbonova**<br>**Hilola Tilovova**<br>*BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIGA NAZAR* | 949 |
| 182. | **Mirzaliyev Zaynobiddin Saidulla**<br>**Yuldoshev Shakhboz Khoshimjon**<br>**Yakubzhanova Yakutkhan Gulomzhanovna**<br>**Turgunov Avazkhan Ahmadjanovich**<br>*MAIZE, MAINTENANCE AND DEVELOPMENT OF WAYS TO OVERCOME DEFICIENCIES IN GROWTH FROM THE SUBSYSTEM* | 953 |
| 183. | **Teshabayeb Sherzotbek Alijanovich**<br>**Abdurashidova Shaxnoza Akramjonovna**<br>*ANDIJON VILOYATINING OCH TUSLI BO'Z TUPROQLARI SHAROITIDA O'RTA TOLALI G'O'ZA NAVLARIDA DEFOLANTLARNING SAMARADORLIGI* | 961 |
| 184. | **Teshabayeb Sherzotbek Alijanovich**<br>**Mamaturaimova Muxlisa Valijon qizi**<br>*ORGANIK DEHQONCHILIKDA BEGONA OTLARGA QARSHI UYĢUNLASHGAN KURASH CHORALARI* | 965 |
| 185. | **Bekmuratova Suluxan Yakipbayevna**<br>*KASB-HUNAR MAKTABLARDAGI O'SMIR YOSHLARNING MATEMATIKA FANIGA QIZIQISHINI UYG'OTISH UCHUN YANGI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA MATEMATIK METODLAR* | 968 |

# ОНА ТИЛИ ДАРСЛАРИ УЧУН МУЛЬТИМЕДИАЛИ ЎЙИН ЛОЙИҲАЛАРИНИ ЯРАТИШ

**Кулдашева Санобар**
*Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети таянч докторанти*

**Аннотация.** *Мақолада она тили дарсларининг билимларни мустаҳкамлаш, такрорлаш, уйга вазифа бериш босқичларида мультимедиа воситаларидан унумли фойдаланиш, локал-модулли мультимедиа технологияларини яратиш, уларнинг лойиҳаларини тузиш, сценарийларини ёзиш ҳақидаги таклиф ва мулоҳазалар ҳақида фикр юритилган.*

**Калит сўзлар:** *мультимедиали таълим технологияси, локал-модулли технологиялар, пирамида, АКТ, ўйин лойиҳалари.*

Она тили таълимида ахборот технологиялари имкониятларидан фойдаланишни кенгайтириш масалалари давлат таълим тизимининг устувор вазифаларидан саналади. Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, “айни пайтда аҳоли, айниқса, ёшларимиз турли маълумотларни, асосан интернет ва ижтимоий тармоқлардан олмоқда. Бинобарин, она тилимизни жозибали ва қизиқарли тарзда тақдим этиш, бунинг учун ўзбек тилининг компьютер дастурларини, онлайн дарсликлар, электрон луғатларни яратиш керак. Интернет имкониятларидан тўлиқ фойдаланиб ўзбек тилини кенг тарғиб этиш бўйича ишларимизни кучайтиришимиз лозим”[1]. Албатта, интернет ва ижтимоий тармоқлар ҳаётимизнинг бир бўлагига айланиб бораётгани она тилини ўқитишда мультимедиа воситаларидан фойдаланиш эҳтиёжини келтириб чиқарди. “Махсус мультимедиа қурилмасидан фойдаланиш – ҳар хил турдаги график муҳаррирлар, график тасвирларнинг ранг схемасини ўзгартириш, маълум бир шрифтни киритиш, гиперҳаволалар, интерактив машқлар тизими ва б. – монитор экранида матнни талабалар томонидан тубдан бошқача психологик идрок этишига, демак, ўқув материалини бошқача таҳлил қилиш ва тушунишга ёрдам беради”[2]. Дарҳақиқат, мультимедиа воситаларининг имкониятларидан унумли фойдалана олиш ўқитувчи ва ўқувчини янги таълим муҳитига олиб киради, кўпроқ ва кенгроқ маълумот эгаллаш учун шарт-шароит яратади.

Таълим ва дарс машғулотининг ҳар қандай босқичида мультимедиа имкониятларидан фойдаланиш тавсия этилади. Уни дарснинг барча босқичларида қўллана олиш имконияти эса бу технологиянинг деярли универсаллигини кўрсатади. Ана шу универсаллик ўқитувчи учун ҳам, ўқувчи учун ҳам қўшимча қулайликларни келтириб чиқаради. Эндиликда ушбу технологияларнинг кўплаб фанлардаги асосий шакллардан бирига айланиб боришидаги асосий сабаблардан биридир. Унда тавсия этилаётган манба ва материалларнинг ранг-баранглигини кўп жиҳатдан кўриш ва

кузатиш мумкин бўлади. Оддий матн ёнидаги турли жадваллар, схемалар, диаграмма ва анимацияли материалларнинг намоён бўлиши машғулот мазмунини бойитибгина қолмай, уларнинг ўқувчи томонидан ўзлаштиришини осонлаштириши, “ҳазм жараёнлари”ни қулайлаштириши ундаги афзалликларни кўрсатади. Шунингдек, қўшимча бир қатор имкониятлар бу шаклга имтиёз ҳам беради. Матнни такрор ва такрор кўра олиш, таъкидланиши лозим бўлган ўринларни махсус белгилай олиш, уларга анимация элементларини кўплаб киритишнинг мумкинлиги ва бошқалар шу сирага киради. Zhen Wang ва Jianbo He ўз тадқиқотларида “Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, бу – компьютер ва тегишли техник жиҳозлар, расмлар, матнлар, товушлар, тасвирлар ва турли хил оммавий ахборот воситалари маълумотларини рақамли равишда олиш, бошқариш, алоқа қилиш ва қайта ишлаш учун янги авлод компьютер интеграциялашган ва фойдаланувчиларга интерактив маълумотларни тақдим этиш ҳамда мулоқот ўрнатиш муҳити”[3] эканлигини таъкидлайди. Мультимедиали ахборот тасвир, товуш ва анимация комбинациясини бирлаштиради ва фойдаланувчи терминалига кўп ўлчовли, кўп бурчакли ва кўп режимда узатиш имконини беради. Мультимедиа технологияси бир нечта ахборот объектларини бирлаштириб, қайта ишланиб, сўнг ўқувчига ҳар томонлама таъсир асосида тақдим этилади. Кўриш, эшитиш, бажариб кўришнинг параллел ҳолда бир вақтнинг ўзида амалга ошириш эса ўқувчиларнинг муҳокама қилиши, хулоса чиқариши учун кучли ижобий таъсир кўрсата оладиган омилга айланади. Мана шу жараёнларнинг нисбатан қисқа муддат (вақт оралиғи)да бажариш эса ўқувчининг ижодий фикрлаши, мушоҳадаси, энг муҳими, натижани кўз олдида юзага келиши асосида ўзига бўлган ишончнинг кучайишига олиб келади.

Таълим-тарбия жараёнида қўлланадиган ҳар бир шакл, восита, метод ва усулларнинг қўлланиш хусусиятлари мавжуд. Педагогик меъёр ва мезонларга риоя этиш бу ерда ҳам ўз кучини тўла сақлаб қолади. Бу сирага мультимедиа воситаларидан дарснинг қайси қисмида, қанча миқдор ва муддатда фойдаланиш ҳам олдиндан пухта режалаштирилиши жоиз бўлади. Уларга риоя этмаслик ўқувчида зерикиш, тушунмай қолиш, пайдо бўлган саволларни эсидан чиқариб қўйиш ҳолатларига олиб келиши мумкин. Она тили дарсларининг билимларни мустаҳкамлаш ва кўникмаларни ривожлантириш, такрорлаш босқичида дидактик материал сифатида ўқитувчининг ўзи яратган мультимедиа тақдимотларидан, интернетдан саралаб олинган аудиоматн, видеоролик, анимация роликлари, видеокейслар, мультимедиали техник топшириқлар ва турли хил компьютерда бажарилиб баҳоланадиган мультимедиали тестлардан фойдаланиш орқали ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти самарадорлигининг оширилишига эришилади. Ўқувчи томонидан у ёки бу қоидани қўллаш учун ўз схемаси ёки алгоритмини яратиш вазифани ўқувчи учун шахсан аҳамиятли қилиш имконини беради. Янги билимларни фаол мустақил равишда ривожлантиришга, фаолиятнинг янги усулларини ишлаб чиқишга, ўқувчиларнинг фаол шахсий тажрибасини она тили фани марказига қўйишга

эришилади. Бундай ҳар хил турдаги топшириқлар барча ўқувчиларни ўқув жараёнига жалб қилади. Ижодий ёндашув асосида мулоқот ўрнатиш имконини беради. Анимация, аудио ва видеофайлларни киритиш, экрандаги исталган матнни ўзгартириш имконияти, рангли маркерларда ишлаш дарсни ҳаётга айлантиради. Жараён марказида ўқувчининг шахсияти туради ва барча имкониятлар унинг учун хизмат қилади.

Маълумки, педагогик технология таълим амалиётида уч даражада қўлланилади: умумпедагогик, хусусий-методик ва локал-модулли. Шу ўринда мультимедиа воситалари (матн, тасвир, видео, аудио ва анимация)дан фойдаланиб локал-модулли технологиялар яратиш ва дарс машғулотлари жараёнига татбиқ этиш ҳақида тўхталиб ўтамиз.

**“Пирамида” ўйини.** Она тили фанидан бирор мавзу ёки бўлим тугагандан сўнг шу мавзулар доирасида ўқувчилар эгаллаши лозим бўлган лингвистик компетенцияларни синаш учун бу ўйиндан фойдаланиш мумкин.

Ўйиннинг мақсади: ўқувчилар томонидан эгалланган билим, кўникма, малакаларни тизимлаштириш ва мустаҳкамлаш.

Ўйиннинг вазифаси: она тилига оид тушунчаларни билиш, таҳлил этиш, умумлаштириш ва хулосалар чиқара олишга ўргатиш.

Зарур жиҳозлар: компьютерлар.




Ўйин қоидаси: ўйин жараёнида ҳар бир ўқувчи алоҳида компьютерда ўтиради. Компьютер экранига ҳосил қилинадиган пирамида шакли намоён бўлади.

Пирамида 20 та катакчадан иборат. Катакчаларда саволлар яширинган. Пирамиданинг ёнида “қурувчи” туради. Ўқувчи пирамидадаги катакчаларни очиб саволларга жавоб бериши керак. Курсорни катакчанинг устига олиб бориб босганда, экраннинг ўнг томонида савол пайдо бўлади ва “қурувчи” саволни ўқиб беради. Ўқувчи тўғри жавобни танлаганда, катакча очилиб сариқ тусга киради. Агар нотўғри жавобни танласа, катакча очилмай қолади, яъни рақамланган ҳолатида тураверади. Ҳар бир тўғри жавобга “қурувчи” уни рағбатлантириб боради, нотўғри жавоб учун “афсус” ишорасини қилади. Тўғри жавоб топилганда очилган катакчалар пирамида қуриш учун қўйилган “ғишт” ҳисобланади. Барча катакча (ғишт)лар очилганда пирамида сариқ тусга киради ва қурилган ҳисобланади. Ўқувчи топа олмаган саволининг устига қайта-қайта курсорни босиб жавобни тахминан белгилаш ҳолатлари бўлиши мумкин. Ўйин технологиясини янада такомиллаштириб, ўқувчи бир марта уринишда топа олмаса, иккинчи уринишда бошқа савол айланиб келишини йўлга қўйиш керак. Бунда ўқувчи тезроқ пирамидани қуриш учун жавобларни шошиб тахминан босиб юбориш ҳолатларининг олди олинади. Саволни синчиклаб ўқиб

тўғри тўхтамга келмаса, вақтдан ютқазиб қўйиши мумкин. Яна бир эътиборли жиҳати, маълум вақт белгилаб берилиши лозим. Ва бу билан кимни ғолиб деб топишни, кимни баҳолашни ҳам "қурувчи"нинг (яъни компьютернинг) зиммасига юклаш мақсадга мувофиқ. Ҳар бир саволга 30 секунддан вақт ажратиб, жами 10 минут вақт белгилаш керак. 10 минутда пирамида қурилмаса, ўйин тўхтатилади. Мазкур ўйин технологиясининг қатъий қолип доирасида олиб борилиши ўқувчидан дарсга пухта тайёрланиб келишни талаб қилади, тезкорлик билан аниқ қарор қабул қилиш, ён-атрофга чалғимаслик, ўз фикрига собитлик, ўзини намоён қила олиш, ғолибликка интилиш кўникмаларини шакллантиради. Пирамиданинг қурилиши учун қуйидаги кўринишдаги тест ва турли топшириқлардан фойдаланиш мумкин.

Масалан:

1. Имловий жиҳатдан тўғри ёзилган сўзлар қаторини аниқланг.

A) муаййан, лаййоқат B) меъмор, беъмор

C) уддабурон, маддоҳ D) маротаба, фаравон

2. Аниқловчи феъл кесимдан ташқари барча гап бўлаклари билан бевосита боғлана олади. Ушбу фикр ҳақидаги тўғри жавобни белгиланг.

A) тўғри B) нотўғри

3. "Ишга тушурмоқ" феъли имловий жиҳатдан тўғри ёзилганми?

A) тўғри B) нотўғри

4. Хаёл сўзининг маънодошини топинг.

A) ўй (от) B) ўй (феъл)

5. Сўз бирикмаси берилган қаторни топинг.

A) ишлаб чиқармоқ B) ўқиб чиқмоқ

C) олиб келмоқ D) Ўрта Чирчиқ

Экранда савол пайдо бўлганда, саволнинг овоз вариантини ҳам қўшиш, тўғри жавоб белгиланганда рағбатлантирувчи, нотўғри жавоб белгиланганда хафаликни билдирувчи белги (смайлик)ларни ҳам илова қилиш мумкин.

Бундай ўйинлардан уйга топшириқларда, такрорлаш дарсларида ҳамда қўшимча машғулотларда фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Ўйин жамоа билан ҳам, жамоасиз ҳам ўйналиши мумкин, мақсад – саволларга тўғри жавоб топиш. Мультимедиа воситаларидан фойдаланаётганда материалларни тўғри танлаш ва саралаш, мультимедиали технологияларни яратаётганда ўқувчининг дунёқараши, ёши, психологияси, қизиқишлари, савияси инобатга олиниши шарт. Акс ҳолда, барча изланишлару сарфланган меҳнат самарасиздир.

Ўйлаймизки, ўқувчи ёшидаги болаларни ўзига "ром этган", тарбиясига салбий таъсир кўрсатаётган, уларни кун сайин "зомбилаштираётган" турли компьютер ўйинлари ўрнига мана шундай лингвистик ўйин дастурларини яратиш ва татбиқ этиш лозим.

**ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. – Халқ сўзи, 2019 йил 21 октябрь.

2. Берарди Симон. Дистанционное обучение в практике преподавания русского языка в итальянской аудитории (на примере авторских мультимедийных курсов “Краски-А1” и “Краски-А2”). Дисс. на соискание уч. степени кандидата педагогических наук. – Москва, 2011.- С.9.

3. Zhen Wang, Jianbo He. On influence of Computer Multimedia Technology in Language Learning. Journal of Physics: Conference Series 1802 (2021) 032092 IOP Publishing doi:10.1088/1742-6596/1802/3/032092

4. Адилова С.А. Ўзбек тили машғулотларини компьютер технологиялари воситасида ташкил этиш (олий таълим муассасаларининг русийзабон гуруҳларида). Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 55-б.

5. Шлыкова О.В. Культура мультимедиа: Уч. пособие для студентов / МГУКИ.- Москва, ФАИР-ПРЕСС, 2004. – 415 стр.

6. Полат Е.С. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Учеб.пособие для студ.пед.вузов и системы повыш.квалиф пед. кадров. – Москва, Издательский центр “Академия”, 2003. – С.272.

7. Щукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. Учебное пособие. Москва. “Высшая школа” 2003. – С.333.

8. Морева Н.А. Технологии профессионального образования. 3-е издание. – Москва, Издательский центр “Академия”, 2008. – С.432.

9. Беккулов А.Мультимедиа дарсларини лойиҳалашда ўқитувчининг ахборот компетентлиги // http://malaka.uz/index.php/article/view/669.